


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

35 859



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 351



Oilaviy korxonona

5 234



Xususiy korxonona

41




Aksiyadorlik jamiyati

605




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxonona, birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidan javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2023-yil yanvar-dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 4 388 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 841 ta, oilaviy korxonalar 274 ta, xususiy korxonalar 69 ta, muassasalar 94 ta va boshqalar 110 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1-yanvar holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘gan tarmoqlardan hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 5 511 tani tashkil etadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 18,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan 95,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 55,1 foizni), 1,8 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish (58,9 foizni), 2,2 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (84,7 foizni) hamda 0,6 foizini elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (94,6 foizni) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 111 tani tashkil etdi. Qurilish sanoati iqtisodiyotning ustivor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,2 foiz ulushini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etdi;

bino va inshootlar qurish yo'nalishi 55,5 foiz ulushni (57,3 foizni) tashkil etdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,3 foiz (62,7 foizni) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9 126 tani tashkil etib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida to'g'ri keladi. Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 63,2 foizni tashkil ettgan b'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68,1 foizni;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,9 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 70,9 foizni;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 6,9 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,5 foizni tashkil etdi.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 241 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga 61,2 foizni tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 5,6 foiz ulushini tashkil etdi.

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat ovqat mahsulotlari etkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,4 foiz ulushini tashkil etdi.


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 431 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,4 foizni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 72,4 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,7 foiz), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 59,0 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,8 foiz), aloqa yo'nalishida o'tgan yilga nisbatan – 72,9 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 49,9 foiz), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan – 68,2 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,4 foiz), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammlar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 50,0 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,8 foiz), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 75,0 foizni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,4 foiz) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3 351 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 131 taga yoki 4,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 483 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 479 taga yoki 49,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 274 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 35 859 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 647 taga yoki 8,0 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 433 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 10 837 taga yoki 34,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 841 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 965 taga yoki 20,1 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 481 tani tashkil etib, ulardan 307 tasi yoki 63,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 35 taga yoki 7,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 56 ta chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



**Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

| | <i>Jami</i> | <i>shundan:</i> | |
|--------------------------|-------------|--------------------------|--------------------------|
| | | <i>qo'shma korxonona</i> | <i>xorijiy korxonona</i> |
| Viloyat bo'yicha: | 307 | 149 | 158 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Andijon sh. | 118 | 47 | 71 |
| Xonobod sh. | 15 | 8 | 7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Andijon | 20 | 13 | 7 |
| Asaka | 18 | 11 | 7 |
| Baliqchi | 7 | 5 | 2 |
| Bo'ston | 6 | 4 | 2 |
| Buloqboshi | 17 | 9 | 8 |
| Jalaquduq | 15 | 5 | 10 |
| Izboskan | 17 | 6 | 11 |
| Ulug'nor | 4 | 2 | 2 |
| Marhamat | 14 | 9 | 5 |
| Oltinko'l | 18 | 6 | 12 |
| Paxtaobod | 5 | 3 | 2 |
| Xo'jaobod | 8 | 6 | 2 |
| Shahrixon | 19 | 13 | 6 |
| Qo'rg'ontepa | 6 | 2 | 4 |

Yetakchi o'rinni 73 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 23,1 foiz), Turkiya (ulushi 15,3 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 14,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.


Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|--|------------|------------|------------|------------|------------|
| Jami | 299 | 339 | 372 | 433 | 307 |
| shu jumladan: | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 25 | 24 | 22 | 30 | 20 |
| Sanoat | 179 | 191 | 204 | 217 | 149 |
| Qurilish | 19 | 21 | 27 | 35 | 21 |
| Savdo | 35 | 47 | 54 | 79 | 64 |
| Tashish va saqlash | 2 | 4 | 4 | 5 | 5 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7 | 9 | 9 | 10 | 12 |
| Axborot va aloqa | 5 | 4 | 4 | 5 | 3 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 3 | 5 | 5 | 6 | 2 |
| Boshqa turlar | 24 | 34 | 43 | 46 | 31 |


Hududlar kesimida jami chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 29 717 tani tashkil etdi.


Ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: Andijon shahrida – 26,2 foiz, Asaka – 8,6 foiz, Andijon – 7,9 foiz, Shahrixon – 7,1 foiz, Baliqchi – 5,6 foiz, Oltinko'l – 5,1 foiz, Izboskan – 4,9 foiz, Marhamat – 4,8 foiz, Qo'rg'ontepa – 4,8 foiz hamda Xo'jaobod – 4,8 foiz tumanlarida tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni

(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 28,2 %, Andijon 8,1 %, Asaka 7,5 %, Shahrixon 6,8 %, Baliqchi 5,4 %, Marhamat 5,2 %, Xo'jaobod 5,1 %, Izboskan 5,0 %, Oltinko'l 5,0 %, Jalaquduq 4,7 %, Paxtaobod 4,7 %, Qo'rg'ontepa 4,1 %, Buloqboshi 3,0 %, Bo'ston 2,8 % Ulug'nor 2,6 %, tumanlari va Xonobod shahri 1,8 % ni tashkil etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (20,8 %), Andijon (19,0 %), Andijon shahri (16,8 %), Qo'rg'ontepa (14,2 %), Asaka (9,5 %), Shahrixon (6,6 %), Oltinko'l (3,6 %), Izboskan (3,6 %), Buloqboshi (2,2 %), Baliqchi (1,5 %), Paxtaobod (0,7 %) Jalaquduq (0,7 %), Xo'jaobod (0,4 %), va Xonobod shahri (0,4 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.